

Jadidchilik – Milliy o‘zlik, istiqlol va kelajak

Mamarajabova Madinabonu Zokir qizi.

O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy komunikatsiyalar universiteti

Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo ‘nalishi 2-kusr talabasi.

Annotatsiya: Bugungi mustaqil mamlakatimiz bu natijalarga erishishi uchun juda og‘ir va tahlikali yo‘llarni bosib o‘tgani hammamizga ma’lum. Mustaqillik haqida gap ketar ekan avvalo bu uchun jon fido qilgan ajdodlarimiz ko‘z oldimizga keladi. Ularning harakatlari bilan biz bugun erkinlik sururini tuymoqdamiz. Jadidlarimiz manashu kunlar orzusida, o‘zlikni saqlab qolish uchun milliy-ozodlik harakatlarini olib borgan ziyorolarimizdir. Ular jadidchilik nomi bilan vatan, millat, xalq qayg‘usini anglagan holda maydonga chiqdi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadidchilik, Chor Rossiyasi, ozodlik, ma’rifatchilik, matbuot.

Jadid yoki jadidizm arabchada “yangi” degan ma’noni anglatadi. Bu harakat namoyondalari dastlab taraqqiyparvarlar keyinchalik esa jadidlar deb nomlangan. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarda Qrimda Ismoil Gaspiraliskiy rahbarligida vujudga kelgan. U Bog‘chasaroyda dastlabki yangi usuldagagi maktabni tashkil qiladi. O‘z maktabi uchun darsliklar ham yozgan, qo‘llanmalar chiqargan, ayni vaqtda sharqda yuz berayotgan chorizmning kirdikorlarini fosh qiluvchi maqolalar ham chiqargan. Bunda Gaspiraliskiyga o‘zi chop etgan “Tarjimon” jurnali katta yordam bergen. Aynan Ismoil Gaspiraliskiyning qarashlari bizda ham jadidchilikning o‘ziga hos harakatini vujudga kelishiga ta’sir qilgan. 19- ars oxiri va 20-asr boshlarida Turkiston o‘lkasida jadidlar deb atalgan ma’rifatparvarlar qatlami vujudga keldi. Ular chorizmni mustamlaka siyosatini ancha zaiflashtiruvchi islohatlar bilan tez fursatda xalq orasida tanila boshladи. Mustamlaka mamlakat bo‘lganimiz uchun biz o‘sma asrlarda yevropa mamlakatlaridan ta’lim va ishlab chiqarish bundan tashqari ko‘plab sohalarda ortda qolib ketganmiz. Qoloqlik va jaholat o‘lka aholisiga va mamlakat sivilizatsiyasiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Bu holat o‘sma zamonaning ilg‘or ziyoli qatlamlarida ozodlik va erkinlikga erishish, xalqni cho‘kib borayotgan tubanlik botqog‘idan qutqarish g‘oyalalarini uyg‘ota boshlaydi. Turkiyadagi “Ittihod va taraqqiyot”, Eronda vujudga kelgan bobiylik va bahoiylik kabi harakatlarni vujudga kelishi ziyorilarda ular kabi mustaqillik va hurfikrlilikga erishish xohshini

uyg'otdi. O'z maqsadlarini amalga oshirishda qoloqlikga, mutaasiblik, loyoqatsizlikga, xurofotga qarshi kurashishga alohida ahamiyat bergenlar.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilardan iborat edi.

- Turkiston o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish.
- "Usuli qadimni" inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish.
- Milliy davlat bunyod etish.
- Konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish.
- Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish.
- Milliy pul birligi, milliy qo'shin tuzish. [2]

Bundan tashqari ular amalga oshirishda ustivor deb bilgan yo'naliishlar ham bor: o'lkada yangi usuldagagi maktablarni tashkil qilish, gazeta va jurnallar chop etish, teatr truppalari va turli xil ma'rifiy jamiyatlar tashkil qilish, yoshlarni chet elga, xususan ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarga tahsil olishga yuborish, xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini rivojlantirish kabi muhim islohatlar ham joy olgan edi. 1910-yilda yangi usuldagagi maktablar soni Toshkentda 24 taga yetgan edi. 1911-yilga kelib Turkistonda ularning soni 63 taga yetdi. Keyinchalik maktablar soni 100 tagacha yetib bordi. Taraqqiyparvarlar birinchi navbatda islom dinida har bir musulmon erkakva ayolning ta'lim olishi shart ekanligi g'oyasini ilgari surishdi. Bundan ko'rishimiz mumkunki ilm olish erkaklar bilan bir qatorda ayollarga ham hos fazilat deb topildi. Farzand tarbiyasi asosan onaga bog'liq bo'lganligi uchun qizlarni ham ilm olishida tashabbuskor bo'ldilar. Ya'ni ayol kishini umri tikish- bichish, ovqat tayyorlash, va turli xil uy ro'zg'or ishlaridan iborat emasligini, salohiyatli bo'lish ham ularning hayotida muhum o'rinnegallashini ko'rsatmoqchi bo'lishdi. Bundan tashqari salohiyatli yoshlarni chet davlatlariga xususan Germaniyaga o'qishga yuborish, u yerda olgan bilimlarini bizda ham joriy qilishlari, fikr va mulohazalar almashishlari, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lishlari uchun edi. Jadidchilik harakati yo'naliishi va joylashgan joyiga qarab Turkiston, Buxoro, Xiva jadidchilariga bo'lingan.

Turkiston jadidchilik harakati: Bu harakatni asosan ziyorilar tashkil qilgan. Ularning maqsadi Turkistonni dastlab muxtor, keyinchalik mustaqil qilish bo'lgan.

Buxoro jadidchilik harakati: Bu harakat asosan og'ir sharoitda vujudga kelgan. Uning tarkibi turli xil qismlardan ziyoli, dehqon, mulla, savdogarlar, ma'mur, hunarmand do'kondorlardan iborat bo'lgan. Ular Buxoro amirlik tizimida

islohatlar joriy qilgan. Soliqlarni kamaytirish, siyosiy-ma'muriy tizimni o'zgartirish kabilar edi.

Xiva jadidchilik harakati: bu harakat dastlabkilaridan biroz tafovut qiladi. Bu yerda ikkita oqim mavjud bolgan. Ular o'ng oqim va so'l oqim. O'ng oqimga Xiva xoni vaziri Islomxo'ja boshchilikgida savdo-sanoat korxonalari egalari va yirik boylarni birlashtirgan. Ular xon hokimiyatini saqlab qolgan holda iqtisodiy islohatlar o'tkazish, bozor munosabatlarini rivojlantirishni maqsad qilishgan. So'l oqimga qozikalon Bobo oxun Salimov rahbarlik qilgan. Bu harakat hunarmand, sarmoyador va turli qatlamlarni birlashtirgan. Ular aholining bilim saviyasini o'stirish uchun yangi usul mакtablari joriy qilishni ilgari surishgan. Turli hududlardagi jadidchilik harakati o'ziga hos milliy xususiyatlarga ega bo'lsada, ularni qarashlarini mushtarak qilib turuvchi jihatlar mavjud edi. Ma'rifatparvarlarimiz bilimsizlik, madaniyatsizlik, jaholat, mutaasiblik, diniy aqidaparaslikga qarshi kurash olib borganlar. Va bularga insonni azob- uqubat botqog'iga botiruvchi sifatida qarashgan. Ular podsho hukumatining absolyutizm siyosatiga qarshi chiqdilar, inson erkinligi va huquqlar tizimini yaratishni yoqlab chiqdilar. Jadidchilik keng ma'noda bilim tarqatuvchi, ziyoga yetkazuvchi insonlar edi. Siyosiy borada milliy davlat tashkil qiluvchi, xalqni ozodlikga olib chiquvchi sifatida qaraladi.

Jadidlar Turkistonda azaldan mavjud bo'lgan Alisher Navoiy, Bedil, Boborahim Mashrabdan qolgan merosdan foydalanadilar. Ular mamlakatdagi siyosiy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy tuzumlardagi barcha kamchiliklarni tuzatish, insonlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularni qo'llab quvvatlash va himoya qilish, farovonligini oshirishga sitqidildan intilish yo'lidan bordilar. Turkiston ilg'or ziyoilari erishgan yutuqlar ichida eng salmoqlilari milliy ta'lim tizimini yaratish, matbuot tashkil qilish bo'lgan. Turkistondagi jadidchilik matbuoti 1905-yildan boshlanadi. Bu yildan boshlab jadidchilarimizning bir qancha jurnal va gazetalari chop etila boshlanadi. 1906-yilda Ismoil Obidov muharrirligida „Taraqqiy“ gazetasi chop etila boshlanadi. Bu gazetaning ilk soni chiqishi munosabati bilan Ismoil Gaspiralskiy tabriknomalar yuboradi. Gazetaning shiori “Najot: maslakda sabot; to‘g‘rilikni ijobat” deb ataladi. Gazetaning ilk sonlaridan birida Munavvarqorining “Bizning jahl, jahli murakkab” maqolasi bosib chiqariladi. Bu gazetada kitobxonlar mehridan joy oladi, gazetada jamiyatda bo'layotgan ahvoldan tashqari, jadidlarimiz o'z g'oyalalarini xalqga tanishtirib borishda ham foydalanishgan, ta'lim tizimida ko'plab yangiliklar bo'lgan. 1924-yilda birgina Buxoroni o'zida 43 ta maktab bo'lgan. Bulardan 5 tasi qizlar mакtabi edi. Bundan tashqari u yerda intenat mакtab, bilim yurti, kasb hunar mакtabi, o'rta mакtablar ham bor edi. Jami Buxoroda 58ta maktab bor edi [4]. Ular ham Sharq, ham G'arb mamlakatlari yutuqlarini erishishga harakat qildilar. Yoshlarni chetda o'qitish fikri

ham ularda chet davlatlariga sayohatga borganda paydo bo‘lgan. Davlatlarning ichki hayotini bilishning eng yaxshi usuli sayohatdir. Ular ham shu yo‘lni qo‘lladilar, zehnlarini oshirdilar, bilim darajalarni solishtirdilar. Bu natijalar jadidlarimiz erishgan eng katta yutuqlar edi. Chunki o‘scha vaziyatda bularga erishish ancha qiyinchilik tug‘dirgan. Ammo ularning oldiga qo‘ygan maqsadlari oldindagi to‘sislarni yengib o‘tishiga yordam bergan. Ular aholi uchun kutubxonalar tarmog‘ini ham tashkil qilgan. Kutubxonalarda o‘zimizdagi va chetdagi eng sara adabiyotlarni to‘plashgan. Jadidlarimiz tomonidan yozilgan adabiyotlar ham o‘scha kutubxonalarda saqlangan. Aynan Turkistondagi milliy kutubxonalar tizimiga ham ular asos solgan.

Inqirozdagi Turkiston kelajagi sifatida siyosiy maydonga chiqayotgan bu ma’rifatparvar ziyorilar mana shunday xiyonatkorona qatl etildi va bu ancha vaqt millatdan yashirildi. Bu qirg‘in nafaqat islohatlar yo‘lidan ketayotgan jadidchilarni yo‘q qilish uchun, balki millatni umidini so‘ndirish, Turkistondagi ozodlik ruhiyatiga barham berishga ham qaratilgan edi. Ko‘pchilik jadidchilarimiz nafaqat uzoqni ko‘rgan, balki bugungi kunimiz uchun asos yaratib bergan hisoblanadi. Zero, jadidlar siyosiy faoliyatining negizi mustaqillik va ozodlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. O‘tmishimiz shonli, zidiyatli fojialar bilan to‘lib toshgan. Ularning ishtirokchilari esa jadidchilarimiz hisoblanadi. Ular o‘zları erisha olmagan, lekin millat farzandlari uchun yaratib bermoqchi bo‘lgan kelajak uchun kurashganlar. O‘scha davr jamiyatida yuz berayotganadolatsizliklarga mo‘tadil ammo keskin islohatlar bilan zarba bergen. Qarshiliklarga mardonavor kurash olib bordi. Lekin ularga berilgan soxta ayblovlar orqasidan qanchalari otuvga hukm qilindi, bedarak yo‘qoldi, oilalari siquvga olindi. Nechalarining qabrlari o‘z ona diyoridan uzoqda joyalshgan. O‘zbekiston mustaqillikga erishgandan so‘ng ma’rifatparvarlarimizning pok nomlari oqlandi, ularga e’tibor, faoliyati bilan tanishish davr talabiga aylandi. 2000-yil 12-mayda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi ochiladi. Keyingi yillarda u majmua tarkibida “Qatag‘on qurbanlarini yod etish muzeyi” ochiladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov milliy o‘zlikni anglashni jadidlar faoliyati bilan boshladilar. Ularning ancha vaqdan beri o‘qilishi ta’qiqlab qo‘ylgan asarlari ya’na yorug‘ dunyo yuzini ko‘rdi. Ularning serqirra ijodlari maktab qo‘llanmalariga kiritildi. Yurt ozodligi, millat farovonligi uchun o‘zlarining shirin jonlaridan kechgan ma’rifatparvar jadidchilarimiz siyosini qayta tiklash, ularni yosh avlod vakillariga tanitish uchun keng ko‘llamli islohatlar amalga oshirildi[1]. Darhaqiqat ularning faoliyati Turkistonda o‘ziga xos Uyg‘onish davrini boshlab berdi. Mustaqillikdan so‘ng ularni nomlari ko‘chalarga berildi, ilmiyva madaniyat maskanlarga berildi, ularning nomiga davlat mukofotlari tashkil etildi, nomlari oqlanib turli xil davlat mukofotlari unvonlari ular nomiga tasdiqlandi, bir qancha konfrensiyalar o‘tkazildi va bu konfrensilarda

jadidlar faoliyatiga qizziqgan ko‘plab davlatlardan talabgorlar qatnashdi. Shu jumladan joriy yilda 11-12- dekabr kunlari Toshkentda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” to‘g‘risida ilmiy konfrensiya bo‘lib o‘tmoqda. Bu anjumanda vatandoshlarimizdan tashqari Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Gemaniya, AQSH, Shevtsiya, Yaponiya, Vengriya, Niderlandiyadan ham ishtirokchilar qatnashadi. Bu konfrensiyada bugungi kunda jadidlar hayoti va faoliyati o‘rganishdagi istiqbolli rejalar tuzilib maqsadlar strategiyalari ishlab chiqiladi. Hozirgi davrga kelib jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e’tirof etildi. Ularning adabiyoti milliy ma’naviyatimizning buyuk merosi sifatida baholanib, ular haqida o‘nlab kitoblar turli asarlar chop etilmoqda[3]. Ularning ezgu an’analarini davom etirish uchun “Jadidlar” gazetasi chop etildi[5]. Bu gazetada mamlakatimizdagи taraqqiyot g‘oyalarini yoritish, uni yosh avlod ongiga yetkazish, ularni fikrlarini shakllantirish kabi ezgu mahsatlarni ko‘zlagan edi. Bugungi kunimiz uchun jadidlarimizga ming shukronalar aytsak kam. Jadidchilik harakati shunchaki oddiy harakat emas, bu harakat negizida butun turkiy xalqlarning taraqqiy etishi o‘zligini topishi kabi muhim masalalar yotibdi. Aynan ajmunda ham o‘rtaga tashlangan masallar jadidlar faoliyatini, ularning g‘oya maqsadini keng ko‘lamda yoritish, chet davlatdan tashrif buyurgan jadidshunoslar bilan fikr almashish ko‘zda tutilgan. Hozirgi jamiyatimiz ham zamon talablariga mos keladigan, ma’rifatparvar ziyorolarimiz kabi hur fikr, o‘z maqsadlari yo‘lida dadil boradigan jadid kadrlarimizni talab qilmoqda. Bugungi yoshlar erkin nafas olmoqda, o‘zi xohlagan yo‘nalishlarda tahsil olmoqda, jadidlarimiz qurmoqchi bo‘lgan jamiyat bugun biz uchun yaratilgan. Biz zamonamizga nafaqat o‘z ko‘zlarimiz balki, biz uchun o‘zlarini qadrli hayotlaridan voz kechgan jadidlarimiz ko‘zi bilan ham boqishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T. Sharq 1998 y.
2. Tillaboyev S., Zamonov A. “O‘zbekiston tarixi” (darslik) 2024 y.
3. Xamraulov A. “Jadidchilik – Milliy o‘zlik, istiqlol va kelajak”, “Xalq so‘zi” gazetasi. 2023 y.
4. <https://tarix.sinaps.uz>
5. <https://daryo.uz>